



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA O'STIRISH USULLARI
МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА
ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА
METHODS OF DEVELOPING THE SPEECH OF PRIMARY STUDENTS
BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH.**

Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna,

Termiz davlat pedagogika instituti,

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchi

Tel: +998912387532

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda integrativ yondashuv usullari umumiy xususiyatlari atroflicha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, notiqlik, nutqni o'stiruvchi topishmoqlar.

Аннотация: В статье подробно излагаются общие черты методов интегративного подхода к развитию речи учащихся младших классов: дидактические игры, ораторское искусство, развивающие речь загадки.

Ключевые слова: didactic games, oratory, and speech development riddles.

Abstract: This article describes in detail the general features of the methods of an integrative approach to the development of speech in primary school students. didactic games, oratory, riddles that develop speech.

Keywords: competence, integration, integrative approach, logical games.

Kirish. .Har bir farzand insonlarga xos bo'lgan tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Shuningdek, o'ziga xos o'quv, qobiliyat va imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Odam bolasi tug'ilgandan so'ng, unda shaxs bo'lib shakllanish, yetuk inson bo'lib voyaga yetish imkoniyati mavjud bo'ladi. Kishi mana shu imkoniyatlardan to'g'ri va to'liq foydalana olsagina mehnati unumli bo'ladi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendentsiyalari ustunlik qiladi.

”Maktablarni chinakkam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim- tarbiyaning integrativ usullarini qo'llash” [1;53] gi so'zlari, belgilab bergan vazifalarini amalga oshirishda ushbu integrativ usullarni, ularning avzalliklarini o'rganish lozim bo'ladi.





Soʻzni qadrlash, yaxshi soʻzlay olish, soʻzlaganda oʻylab, tushunib gapirish, chin soʻzlash, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi boʻlmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning oʻziga xos anʼanasi sifatida yashab va takomillashib kelmoqda. Nutq madaniyatini egallash birinchi galda hozirgi oʻzbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta oʻzlashtirish, adabiy til meʼyorlariga toʻliq amal qilish kabi lisoniy omillarga; ikkinchidan, soʻzlashganda muayyan axloq-odob meʼyorlariga rioya etish, oʻz va oʻzgalari gapiga eʼtiborli boʻlish, oʻrinli soʻzlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish kabi ijtimoiyruhiy omillarga bogʻliqdir.

Nutqning bosh aloqaviy sifatlaridan biri uning toʻgʻri boʻlishidir. Nutqning toʻgʻri boʻlishi soʻzlovchi va tinglovchi, yozuvchi va oʻquvchining bir- birlarining fikrlarini tushunib olishlarini taʼminlaydi. Nutqning toʻgʻri boʻlishi uning adabiy til meʼyorlariga muvofiq kelishidir. Nutqning toʻgʻri boʻlishi asosan ikki meʼyorga-urqu va grammatik meʼyorga qattiq amal qilishni taqozo qiladi. Bunda oʻzbek tili uchun urgʻuning asosan, soʻzning oxirgi bugʻiniga tushishi, qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan urgʻuning soʻz oxiriga tomon siljib borishi nazarda tutiladi. Baʼzan urgʻu notoʻgʻri tushsa, soʻzning maʼnosi ham oʻzgarib ketadi. (qatlama-qatlama, olma- olma, yigitcha kabi). Urgʻuni farqlamaslik soʻz maʼnosining buzilishiga olib keladi. Bu holat gapdagi ayrim olingan soʻzga tushadigan urgʻu (mantiqiy urgʻu) misolida ham kuzatiladi.[3;61- bet] Integratsiyalashgan taʼlim esa maktablarda fan asoslaridan beriladigan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni koʻzda tutadi va uning asosiy maqsadi oʻquv materiallarini mantiqan tugal mazmundagi muammolar majmuasi sifatida oʻrganish oʻquvchilar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va unda insonning oʻrni haqida ilmiy tushuncha va bilimlarni tarkib toptirishdan iborat.

Metodlar va oʻrganilish darajasi. Oʻquvchilarga qanday qilib integrativ usulda dars oʻtishimiz, oʻyinli texnologiyalardan qanday foydalanishimiz mumkinligi, axborot texnologiyalari vositalaridan samarali foydalangan holda darslarni tashkil etish, chet tilini oʻrganish kabi dolzarb masalalar boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari oldiga ulkan vazifalarni belgilab berdi. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarning mantiqiy fikrini oʻstirish, ularning qobiliyatlarini, qiziqishlarini ham, ijodiy fikrlashlarini ham toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish kerak. Dastlab oʻqituvchi oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda ikkita bir xil rangli, ammo turlicha uzunlikka ega boʻlgan qalamlar olib, oʻquvchilarga ularni taʼriflab berishni taklif etadi. Oʻqituvchi bolalarning javobini yoʻnaltiruvchi savollar bilan ularning diqqatini aynan qalamlarning tavsifiga qaratadi, yaʼni ularning biri uzunroq, ikkinchisi qisqaroq ekanligini, qalamlarni bir-biriga taqqoslash yoʻli bilan isbotlashga erishadi. Oʻqituvchi bunday mashqlarni yana boshqa predmetlarda, modellar, rasmlarda davom ettirib, oʻquvchilarda har bir predmet uchun zaruriy boʻlgan sifat – rang boʻlishini, ularni bir-





biriga taqqoslash yo‘li bilan va chamalash yo‘li bilan aniqlash mumkinligini tushuntiradi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili bilan uzviy bog‘liqlikda turli yangi so‘zlarni ham o‘rganish nazarda tutilgan. Ta‘lim o‘quvchilarga ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘qib olishi egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. Ta‘lim jarayoni bolalar xotirasining o‘sishi va turli xil metod va usullar yordamida sodir bo‘ladigan vaziyatdir. O‘yin o‘quvchilarning eng ongi qalbiga singib ketgan faoliyatidir. Ularning bu faoliyati o‘yin turlariga qarab ob‘ektiv voqeilikni hayotiy muayyan darajada o‘zida aks ettiradi. O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma‘lum darajada davomi va mustahkamlanishi tartibida shu narsa isbotlandiki, o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir. Didaktik o‘yin ta‘lim beruvchi ma‘sul bo‘lib bu usul muayyan ta‘limiy maqsadlarga erishuviga ya‘ni o‘tilgan o‘quv materialini aniqlashga mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo‘ladi, har bir didaktik o‘yinni o‘tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan “Teatr” o‘yini nutqni o‘stirishda harakatlar, so‘zlashuv va muomala orqali nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday o‘yinlar, asosan, nutqni yanada ravon va ifodali qilishga yordam beradigan texnikalarni o‘z ichiga oladi. Teatr o‘yinlariga misol qilib, tong vaqti (zalga kirib kelish o‘yini): Ushbu o‘yinda ishtirokchilar bir-biriga kirib kelib, o‘zlarining holatlari va harakatlari orqali izohlar beradi. Har bir o‘quvchi so‘z bilan birgalikda, yuz ifodasi, qo‘l harakatlari va tana tili yordamida o‘zini ifodalashi kerak. Bu o‘yin nutqning o‘ziga xos qismlarini yaxshilashga yordam beradi. Sovg‘a berish, ushbu o‘yinda o‘quvchilar bir-biriga tasodifiy sovg‘alar (masalan, kitob, gullar, muz) berishadi va bu sovg‘ani so‘zlar bilan izohlashadi. Har bir sovg‘aga o‘ziga xos nutq va tasvir kiritish, nutqni aniq va ravon qilishga yordam beradi. Tezkor o‘zgarishlar (Speed Changes): Biror so‘zni tezda talaffuz qilish yoki qahramonning ruhiy holatini tezda o‘zgartirishni talab qiladigan o‘yin. Misol uchun, o‘yin ishtirokchilariga biror matn beriladi, va ular uni turli his-tuyg‘ular bilan (baxtli, g‘azablangan, qo‘rqqan) ifodalaydi. Bu nafaqat nutqni o‘stiradi, balki ifodali nutqni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Tadqiqot natijalari: Ona tili darslarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish ona tili va uni o‘qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biridir. Metodika o‘quvchilarning yosh xususiyati qobiliyatlariga asoslanib, ularning har bir sinfda o‘zlashtirgan bilimlari hajmini belgilaydi. Shuningdek, bu jarayonda uchragan qiyinchiliklarni ko‘rsatadi. O‘quvchilarning yoshi va qobiliyatiga mos bo‘lmagan ta‘lim uslublarini qo‘llash, ularning haddan tashqari zo‘riqish va toliqishlariga, yuzaki bilim egallashlariga sabab bo‘ladi, natijada fanga bo‘lgan qiziqish pasayib ketadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va uslubchilari maktab sharoiti, o‘quvchilar





qobiliyati va milliy psixologik xususiyatlariga mos ta'lim uslublarini takomillashtirishlari muhim va zarur tadbirlardan biri hisoblanadi. O'quvchilar bilimining puxta va mustahkam bo'lishiga erishish uchun dars o'tish texnologiyasiga alohida e'tibor berish kerak.

Tahlil va natijalar. O'quvchilar ona tili darslarida u yoki bu mashqni bajarilishini albatta gapirib berishi va tushuntirishlari kerak bo'ladi. Ajratilgan so'zlar belgilar va mos harakat usullari orasida bog'lanishlar ya'ni yangi bilimlar bilan ularning idrok qilinishi orasida bog'lanishlar ya'ni bilimlar bilan ularning idrok qilinishi orasida bog'lanishlar shu asosda o'rnatiladi. O'quvchilar uchun har bir yangi so'zni o'qituvchining o'zi talaffuz qilib ko'rsatadi, uni aniq ko'rsatmalar, tushuntirishlar bilan o'quvchilarga o'rgatadi. Bu ko'rsatma va tushuntirishlar mumkin bo'lgan xatolarning oldini olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunda hamma ish usullarini o'qituvchi o'zi tushuntirib ko'rsatadi. Masalan o'qituvchi topishmoqlarni o'qiyotganda aniq sodda va ravon o'quvchilar tushunadigan va javobini topa oladigan qilib aytishi kerak.

26-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. Ularni
gaplarga aylantiring. Ikkinchi darajali bo'laklarning
tagiga to'liqlik chiziq chizing.

Qiladi to 's -to'olon,

Yurgan izi - chang-to'zon.

Olov koptok yumaloq,

U kunda o'chmas chiroq.

Yarim sharcha,

Ba'zan kulcha.

Ko'kka soqchi -

Tong otguncha.

[2;25-bet]

Shuning uchun o'quvchilar nutqida ona tili darslarida nafaqat ravon so'zlashga, balki odob bilan samimiy so'zlashni ham o'rgatish lozimdir. Ona tili darslarida faqat standart topshiriqlar bilan chegaralanib qolmay, balki nostandart topshiriqlardan ham unumli foydalanishga ko'proq zarurat sezilmoqda. Nostandart topshiriqlar oquvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, uni bajarishga bolgan ishtiyoqini oshiradi. Bu esa faollikni taminlashning muhim omilidir. Ona tili darslarida olib boriladigan o'yinlarning qiziqarli va mavzuga oid bo'lishi o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga olib keladi. Ona tili darslari mazmunini takomillashtirish va uni o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradigan muhim manbaga aylantirish choralaridan yana biri fan ichidagi fan va fanlararo bog'lanish imkoniyatlarini kengroq





ishga solishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tengdoshlari va kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga, suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildira oladi. Bu yoshdagi o'quvchilarga she'rlarni, she'riy topishmoqlarni tez aytish kabi nutqlarini rivojlantira oladigan topshiriqlarni zamonaviy metodlardan foydalangan holda integratsional yondashilib olib borilsa, o'quvchilarning nutqi jarangdor va tiniq bo'lib boradi.

Bolaga ertak (hikoya) ni qayta hikoya qilishni taklif etish ham samarali usullardan biri. Qayta hikoya qilayotganda voqealarni batafsil ravon so'zlashga, savollarga aniq, to'liq javob berishga alohida e'tibor berish kerak. Bolaga noto'g'ri aytgan joylarda, xotirasidan chiqqanida tovushlarni to'g'ri talaffuz etmaganda asta-sekinlik bilan unga ko'maklashib boriladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarining o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma kitobidan to'g'ri foydalanish ham o'quvchilar nutqini o'stirishda yaxshi natija beradi. O'quvchilar nutqini o'stirishda surat bo'yicha so'zlab, hikoya tuzish, birgalikda she'r o'qish mashg'ulotlari ham keltirilgan.[4; 241-bet]

Xulosa. o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Bu jarayonga integrativ yondashilsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. O'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi."Adolat" milliy huquqiy axbarot markazi.-T.:2022 y.-152 b.
- 2 . Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.II qism. / D. Baynazarova - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.
3. Jo'raev T.T., Halimov S.G`. Nutq madaniyati. O'quv qo'llanma.[matn]–Samarqand: Samarqand: TIBBIYOT KO'ZGUSI, 2021. - 108 b.
4. "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali. 6-son 2024-yil. 241-bet

